Mashqlar turli maqsadlarni ko‘zlaydi: ovozni shakllantirish, diapazon (ovozi hajmi)ni kengaytirish, nafas olish yo‘llarini to‘g‘rilash, sof talaffuz, ovoz registrlari chegarasini tekislash, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalar. Bu mashqlar xonandalarning ijroda vokal-texnik usullarini o‘zlashtirib olishga yordam beradi.

Odatda, mashg‘ulotlar oddiy mashqlardan boshlanadi. Ijro etiladigan mashqlar diapazoni tertsiya, kvarta yoki kvinta intervallar doirasida qulay tessitura, o‘rtacha tezlik va dinamik tuslarda ***mf*** ijro etiladi.

Shu yo‘sinda vokal texnik mashqlar murakkablashib, bir ovozli mashqlardan ikki ovozlikka, so‘ngra polifonik va gomofonik ulubida yozilgan mashqlarga o‘tiladi. Mashqlarni vokal-ansamblregistrining o‘rta tovushlaridan boshlash tavsiya etiladi. Bunda ijro mayin, engil, nafas olish yo‘llari esa erkin holda bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot davomida xonandalarning ovoz yo‘llari bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat berish kerak. Agar ijroda ohangdorlik buzilsa, u holda rahbar buning sababini aniqlashi lozim. Bu nuqsonni bartaraf etish uchun rahbar sof tovush taratadigan joylarni past tovush bilan qulay registrda, ba’zan so‘zsiz ijro ettirishi lozim.

Xonandalarda sof tovush taratish qoidalari quyidagi holatlarda buziladi:

- a) xonandalar tovushlarning baland-pastligini ilg‘ab ololmaganda;
- b) xonandalar nafas olish qoidalariiga rioya qilmaganlarida;
- v) xonandalarning eshitish qobiliyatları yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa;
- g) xonandalarning tovush chiqarish yo‘llari xastalanganda va charchagan holatida.

Bunday holatlarda xonanda bilan 10-15 daqiqa yakka tarzda mashg‘ulot o‘tkazilsa ijobjiy natijaga erishish mumkin. Bu mashg‘ulotlarning uslubiyoti quyidagi ishlardan iborat:

Birinchi navbatda xonanda ovozining diapazonida sof ijro etadigan tovushlarning aniqlash kerak. Asta-sekin sof musiqiy talaffuzdagi tovushlarga yonidagi tovushlar qo‘shiladi. Bola ularning to‘g‘ri eshitish hamda uni ovozi bilan aniq takrorlab bayon qilish kerak. Shu yo‘sinda uning tovush diapazoni kengayadi va sof kuylash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Musiqiy talaffuzning sofligi registr qulayligiga ham bog‘liq: yuqori registrda o‘rta registrga ko‘ra tovushlarni musiqiy talaffuz etish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababli yuqori registrdagи murakkab joylarni mashg‘ulot davomida bir oktava past ijro etib musiqiy talaffuz sofligiga erishish mumkin. Sof musiqiy talaffuzga erishishga quyidagi usullar yordam beradi: mayin va ohista tovushda ijro-***mp*** yopiq og‘iz bilan ijro; “u” unli tovush bilan ijro; jo‘rsiz ijro.

Mashqlarni befarqlik bilan ijro etmasdan, balki tinglash va ijro apparati ishini nazorat etgan holda bajarish tavsiya etiladi. Odatda, vokal-ansamblmashg‘ulotlarida ansamblasarlari, shuningdek, dasturdagi musiqa asarlaridan foydalaniлади.

## VOKAL ANSAMBLI MASHQLARI

1. Mashqlar shoshilmasdan, cho‘ziq, bir nafasda ijro etiladi. Oxirgi tovush zanjirsimon nafasda cho‘zilib turiladi va xormeyster ishorasiga qarab to‘xtatiladi.

Turli unli tovushlardan iborat bo‘g‘inlar bir xil va yuqori pozitsiyada jaranglashini kuzatish lozim.

Musical notation for the words 'Mo', 'Mu', 'Mi', and 'Me'. The notes are quarter notes on the first four lines of the staff. The lyrics are written below the staff.

2. Bir tovushdan musiqiy talaffuzning aniqligini yaxshilash uchun mo'ljallangan mashqlar tovushni cho'ziqligi va engilligini ta'min etadi.

Musical notation for a sequence of words: 'Ma', 'Mi', 'me', 'mi', 'mo', 'mu', 'ma', 'mi', 'me', 'mi', 'mo', 'mu', 'ma', 'mi'. The notes are quarter notes on the first four lines of the staff. The lyrics are written below the staff.

3. Zanjirsimon nafas olish usulini paydo qilish uchun mashqlar. Mashqlar yopiq va turlicha unli tovushlar bilan bajariladi. Rahbar o'z istagi bilan tovush kuchini o'zgartirishi mumkin. Masalan:

Musical notation for the letters 'M', 'O', and 'U'. The notes are quarter notes on the first three lines of the staff. The lyrics are written below the staff. A note above the staff reads 'M (yopiq ovozda)'.

4. Keng nafasni rivojlantirish, jag' mashqlarini yumshatish, «i», «ya» tovushlari kabi unlilarni to'g'ri shakllanishi uchun mashqlar.

Musical notation for the sequence 'mi - - - ya - - - mi - - - ya - - -'. The notes are quarter notes on the first two lines of the staff. The lyrics are written below the staff.

Musical notation for the sequence 'mi - - - ya - - - mi - - - ya - - -'. The notes are quarter notes on the first two lines of the staff. The lyrics are written below the staff.

5. Keng nafasni rivojlantirish uchun mashqlar.

Do major gammasini yuqoridan pastga ijro etish. Asosi «Do» toni yangi tovush bilan almashtirish rahbarga yuqori pozitsiyadagi ko'nikmalarni o'rgatishda yordam beradi. Yuqori tovush o'z navbatida past tovush singari bir nafasda ijro etilmaydi.

Bu o'rinda pastki registrdan tovushni yuqori pozitsiyada musiqiy talaffuz bilan ijro etish kerak. Bunda quyi pardani yuqori pozitsiyada ijro etish bilan ta'minlanadi.

The image shows three staves of musical notation. The top staff uses a treble clef, the middle staff an alto clef, and the bottom staff a bass clef. Each staff consists of eight measures. The lyrics are written below each note. The first staff has lyrics in English: "Do, si, lya, sol, fa, mi, re, do". The second staff has lyrics in French: "do, do, si, si, lya, lya, sol, sol, fa, fa, mi, mi, re, re, do, do". The third staff has lyrics in English: "do, do, si, si, lya, lya, sol, sol, fa, fa, mi, mi, re, re, do, do". The music includes several sharp signs, particularly in the second and third staves.

6. Kuylash vaqtida — va — ko'nikmalarning almashuviga xonandalar ovozining ravonligi, harakatchanligi va engiligin uyg'unlashuviga yordam beradi. Sakkiztalik notalarni ***staccato*** ko'nikmalari bilan ijro etganda nafas tekis bo'lishi lozim.

The image shows two staves of musical notation. The top staff uses a treble clef and has a key signature of one sharp. It contains six measures of music, each consisting of a quarter note followed by a dotted eighth note. The lyrics 'mi mi mi ya ya ya ma ma ma' are written below the notes. The bottom staff also uses a treble clef and has a key signature of one flat. It contains five measures of music, each consisting of a quarter note followed by a dotted eighth note. The lyrics 'mu mu mu ya ya ya ma ma ma' are written below the notes.

7. Keng nafasni rivojlantirish va musiqiy talaffuzning sofligini yaxshilash uchun mashqlar.

Ikki qismdan iborat mashq: MA, MO, MI va ME, MU, MA bir nafasda ijro etiladi.

A musical score for two voices, featuring two staves of music. The top staff is in 2/4 time with a treble clef, and the bottom staff is also in 2/4 time with a treble clef. Both staves begin with a whole note followed by a dotted half note. The top staff has lyrics 'ma - - - - mo - - - - mi - - - -' and the bottom staff has 'me - - - - mu - - - - ma.'. The music consists of eighth-note patterns: the first measure has a single eighth note, the second has two eighth notes, the third has three eighth notes, and the fourth has four eighth notes.

8. Mashqni avvalo sekin tempda ijro etish kerak. Qachonki ijro mustaqil bo‘lganda, tempni asta-sekin tezlatish mumkin. Mashq ijrosi ansamblovozining engil bo‘lishiga, musiqiy talaffuzning sofligiga yordam beradi. Bunda sakkiztalik notalar *staccato* uslubida bir nafasda ijro etilishi kerak.

#### 9. Musiqiy talaffuzni rivojlantirish uchun mashqlar.

A musical staff with a treble clef and a common time signature. It contains 15 quarter notes, each followed by a label representing a note name from the C major scale: Do, re, mi, fa, sol, lya, si, do, do, si, lya, sol, fa, mi, re, do.

A musical staff in treble clef with a continuous sequence of eighth notes. Below the staff, the lyrics "do, do, re, re, mi, mi, fa, fa" are written, followed by a dash indicating the sequence continues.

do, do, do, re, re, re, mi, mi, mi, fa, fa, fa

Musical notation for 'Mi Mi Me Me Ma Ma'. The first two measures are in 3/4 time, followed by a measure in 4/4 time. The melody consists of eighth-note patterns: (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot). The lyrics are: mi me ma mo mu, mi me ma mo mu. The third measure starts with a measure in 4/4 time, indicated by a vertical bar line and a 4/4 symbol. The melody continues with eighth-note patterns: (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot). The lyrics are: mi me ma mo mu. The fourth measure continues in 4/4 time with the same eighth-note pattern: (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot), (dot-dot-dot). The lyrics are: mi me ma mo mu.

10. Kichik sekunda intervalining sofligini yaxshilash uchun mashqlar. Bu mashqni yuqori pozitsiyada bir nafasda ijro etish kerak.

lyo-lyo-lyo, lyo-lyo-lyo, lyo-lyo-lyo, lyo-lyo-lyo, lyo-lyo-lyo, lyo-lyo-lyo, lyo  
 lya-ly-a-ly-a, lya-ly-a-ly-a, lya-ly-a-ly-a, lya-ly-a-ly-a, lya-ly-a-ly-a, lya-ly-a-ly-a, lya  
 lyu-lyu-lyu, lyu-lyu-lyu, lyu-lyu-lyu, lyu-lyu-lyu, lyu-lyu-lyu, lyu-lyu-lyu, lyu  
  
 do - - re - - re - - mi - - mi - - fa - - sol - - sol  
 na - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -  
 ne - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -  
 nu - - - - - - - - - - - - - - - - - - - -

11. Tovush hajmini kengaytirish uchun mashqlar. Bu mashq bir nafasda yuqori holatda ijro etiladi.

ma-ma-ma-ma-ma-ma- ma me-me-me- me-me -me -me mi-mi- mi- mi- mi- mi -mi  
  
 mo-mo - mo - mo -mo - mo - mo mu - mu - mu - mu - mu -mu - mu - mu ma

mi - - ya - - mi - - ya - - mi - - ya - - - -  
 mi - - - ya - - mi - - ya - - mi - - ya - - - -

12. Ikki va undan ortiq ovozda ijro etish ko'nikmalarini hosil qilish uchun mashqlar.

C.T.  
A.B.

C  
T  
A  
B

Musical score for soprano (S), alto (A), tenor (T), and basso continuo (B) parts. The score consists of five measures. The soprano part has four measures of quarter notes followed by a measure of eighth notes. The alto part has four measures of quarter notes followed by a measure of eighth notes. The tenor part has four measures of quarter notes followed by a measure of eighth notes. The basso continuo part has four measures of quarter notes followed by a measure of eighth notes.

13. Artikulyatsiya apparatining mushaklarini bo'shatish va xonanda lablarining faoliyatini oshirish uchun mashqlar.

A musical score for two voices, each consisting of two staves of music. The top staff uses a treble clef and the bottom staff uses a bass clef. Both staves are in 2/4 time with a key signature of one sharp. The lyrics "mo-mo-mo-mo-mo-mo- mo -momo-mo-mo-mo-mo-mo- mo -momo-mo-mo-mo-mo-mo- mo -mo da-da- da-da- da- da - da da-da- da-da- da- da - da da-da- da-da- da- da - da" are written below the top staff, and "mo-mo-mo-mo-mo- mo -mo mo-mo-mo-mo-mo-mo- mo -mo mo-mo-mo-mo-mo-mo- mo -mo da-da- da-da- da- da - da da-da- da-da- da- da - da da-da- da-da- da- da - da" are written below the bottom staff.

A musical score in 4/4 time with a treble clef. The melody consists of three measures. The first measure contains six eighth notes followed by a dotted half note. The second measure contains seven eighth notes, with the first two being sharp and the last five being flat. The third measure contains six eighth notes, with the first one sharp and the rest natural. The lyrics "mi fa sol fa mi re do" are written below each measure.

Musical notation for the hymn tune "Reverend" in G major, 8/4 time. The melody consists of two staves of eight measures each. The first staff begins with a half note followed by a dotted half note, and continues with eighth notes and sixteenth notes. The second staff begins with a half note followed by a dotted half note, and continues with eighth notes and sixteenth notes. The lyrics are: "do re mi fa sol lya si do si lya sol fa mi re do".

The image shows two staves of musical notation. The top staff is in C major and the bottom staff is in F major. Both staves begin with a treble clef and a common time signature. The lyrics are written below the notes, alternating between the two staves. The lyrics are: "do do re mi mi fa sol sol lya si si do si si lya sol sol fa mi mi re do". The notation consists of eighth and sixteenth note patterns.

# VOKAL ANSAMBL SQJ USTIDA ISHLASH

Vokal ansambl sozi - bu interval vaakkordlarning to‘g‘ri, sof musiqiy talaffuz etishdir. Vokal ansambl ishtirokchilarining intervallarni tiniq, sof ijro

etish melodik (gorizontal) sozi, interval vaakkordlarni birgalikda ijro etish esa - garmonik (vertikal) sozi deb ataladi. Kichik yoshdagи bolalar xori degan bo'limda soz ustida ishslash masalalari aniq ko'rsatilgan. Vokal ansambl sozi ustida olib boriladigan ishlar xonandalarning musiqaviy va ashula aytish ko'nikmalariga oid eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari bilan yaqin bog'langan.

Musiqaviy eshitish qobiliyati - bu berilgan kuyni aniq, ravshan qaytara bilish. Ashula aytish ko'nikmalariga oid eshitish qobiliyati esa, bu tovushni paydo bo'lish shakllari, yuqori pozitsiyadagi kuylash va ovoz tusini to'g'ri ifodalash.

Ashula aytish ko'nikmalariga oid eshitish qobiliyatini rivojlanishiga qo'shiq aytish va solfedjio mashqlarini bajarish orqali erishish mumkin.

Buning uchun mashqlar sifatida musiqa namunalarini quyidagicha kuylash juda foydali. Vokal ansambl rahbari yosh xonandalardan mashqning birinchi qismini ijro etishni iltimos qiladi. Keyingi qismining kuyini esa rahbarning ko'rsatmasi bilan ovoz chiqarmasdan (ichida) ijro etishni tasavvur qiladi va bir necha vaqtan keyin rahbarning talabiga binoan to'liq ovoz bilan kuylashda davom etishadi. Shunday qilib, xonandalarning uyg'unlikda kuylash va ichki eshitish qobiliyati kuchayadi.

Masalan:

Vokal-ansambl jamoasi garmonik tovushlarni eshitish qobiliyati rivojlanishiga katta ahamiyat berishi lozim. Bunday imkoniyatlar ko'p ovozli asarlarni ijro etganda paydo bo'ladi.

Bir ovozli asarlarni yaxshi o'zlashtirgandan keyin xonandalarga ikki ovozli qo'shiqlar o'rgatiladi.

Ko'p ovozli ijrochilik malakalari rivojlangan sari mashqlar va asarlar dasturi ham murakkablashishi tavsiya etiladi.

Vokal ansambl sozi sof va tiniq chiqishi uchun xonandalarni to'g'ri ashula aytish san'atiga doir qonuniyat va qoidalarga rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim. Bunda yaxshi nafasda, yuqori qo'shiqchilik pozitsiyasida kuylashni xonandalarga o'rgatiladi. Vokal ansambl sozi asarlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

Shuning uchun soz ustida olib boriladigan ishlar har bir musiqaviy manbaga taalluqlidir. Ayrim asarlar noqulay tonallikkarda yozilgan bo'ladi. Bunday paytlarda rahbar asarni qulay tonallikkarga o'zgartirishi mumkin yoki mashg'ulot davomida qulay tonallikda asar ustida ishlab, kontsertda esa o'zini asl (original) tonallikda ijro etishi mumkin. Garmonik sozning tiniqligi ovozlarni qulay sadolanishiga yordam beradi.

Vokal ansambl guruvida bir necha marta qaytariladigan yoki cho'zimli tovushlar uchraganda ohangni uyg'unligiga ahamiyat berish lozim. Chunki bunday paytlarda ijrochilar kuylayotgan tonallik pardalaridan chiqib ketishlari mumkin.

Katta va kichik sekunda intervalining kuylash talaffuziga alohida e'tibor beriladi. Rahbar gamma va intervallarni kuylashda musiqiy talaffuz qonunlariga rioya qilishi kerak.

Tez hamda sekin tempdag'i asarlarni ijro etishda musiqiy talaffuzning uyg'unligiga erishish qiyin. Qo'shiqlarda ohangdoshlik paydo bo'lishi uchun tez tempdag'i asarlarni sekin tempda va aksincha sekin tempdag'i asarlarni tez tempda o'rgatish yaxshi natijalarga olib keladi. Asarlarning dinamik tuslari ham sozning sofligiga ta'sir etadi. Kuchli va jarangdor ijroda eshitish qobiliyati pasayadi, uyg'unsizlik paydo bo'ladi. Ovoz hajmining yuqori qismlarida kuylash ham sozning tiniqligiga ta'sir ko'rsatadi. Rahbar shu qiyin joylarni bolalarga ovoz hajmini qulay qismlarida o'rgatib, ijroda asarning asl nusxasiga amal qilishi tavsiya etiladi.

Yangi asarni o'rganish davrida xonandalar o'z ansamblpartiyalarini yaxshi o'zlashtirishlari kerak. Xonandalarni doimo jo'rsiz qo'shiqlarni ijro etishga o'rgatish kerak. Bu ularda musiqaviy va ashula aytish ko'nikmalariga oid eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

## **ANSAMBL TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH**

Vokal ansambli - ansambl ijrosidagi tarkibiy qismlarning uyg'unligi va ohangdoshligidir. Vokal ansambli ansambl xususiy va umumiyo bo'ladi.

Xususiy ansambl - bu har bir guruhning muttasilligidir.

Umumiyo ansambl - ansamblguruhlari o'rtasidagi ohangdoshlik, ya'ni butun xorning ansambl.

Vokal ansambl ijrosida ansambl turli tarkibiy qismlardan iborat:

1. Unison ansambl (bir ovozli ijrodagi ansambl, bunda ovozlarning dinamik, tembr, usul va temp birligi);
2. Dinamik ansambl (ovozar sadosining bir xil tus olishi);
3. Usul ansambl (ijro etilayotgan asarning usulini xonandalar tomonidan bir xilda his etilishi);
4. Temp ansambl (asarning bir xil tezlikda ijro etilishi);
5. Tembr ansambl (ovoz tusining bir xilligi);
6. Musiqiy talaffuz ansambl (xordagi barcha guruhlarni sadolanishi);
7. Garmonik ansambl (akkordlardagi barcha tovushlarni ohangdoshligi);
8. Yakknavoz ijro bilan ansambl o'rta sidagi ansambl (yakknavoz ijroning erkinligini ta'minlashda ansamblguruhrining ijrosi bosimli bo'lishdan qochish kerak).

Vokal ansambl ijrosi tarkibiy qismlarining mukammalligi jamoa ishi jarayonida paydo bo'ladi. Vokal ansambl ansambl soz, talaffuz va nyuansga rioya qilishga yordam beradi. Yuqorida ko'rsatilgan ansambljroning turli tarkibiy qismlarning uyg'unligiga har bir ansamblguruhi sadosining birligi bilan erishadi. Bunda xonandalar o'zlarini hamda bir-birlariga qo'shilib kuylashlariga katta ahamiyat beriladi. Mashq sifatida zanjirsimon nafasda unison usulida ijro etiladigan kuylardan foydalanish mumkin.

Ritmik ansambllar ustida ishlaganda xonandalarda asar sur'ati hamda kuchli va kuchsiz metr hissali takomillashtirilishini tarbiya qilish lozim. Ijrochilar qo'shiqni baravariga boshlab, baravariga tamomlash va to'g'ri nafas olishlarni o'rganishlari kerak. Asar har xil tempda yozilgan bo'lsa, boshidagi yangi tempni ilib olishga xonanadalarni o'rgatish lozim. Sekin tempdan tez tempga o'tganda nafasni yangi, tez tempda olish kerak va aksincha. Tez tempdan sekin tempga o'tganda nafasni yangi sekin tempda olish maqsadga muvofiq.

Ovoz sadolari tusining ansambli **f**, **mf**, **mp**, **p** nyuanslari ustida ishlaganda amalga oshiriladi. Undan keyin nyuanslarda ansamblga erishish uchun mashqlarga o'tish mumkin. Dinamik tuslar ansambli ustida ish olib borganda rahbar quyidagilarni bilishi kerak: har bir jamoa o'ziga xos ovoz imkoniyatiga ega, sadoning kuchi tabiiy va erkin yangrashi kerak.

Polifonik asarlarda asosiy ohangni kuylayotgan ovozlar yordamchi ovozlarga nisbatan ravshanroq va yorqinroq yangraydi.

Garmonik uslubda yozilgan asarlarda esa ovozlar bir xil dinamik tusda ijro etiladi.

Gomofonno - garmonik asar ijro etilganda esa asosiy kuyni ijro etgan ovozlar ajratiladi.

## TALAFFUZNI SHAKLLANTIRISH

Qo'shiq ijro etganda so'z talaffuzining aniq va to'g'ri bo'lishiga katta ahamiyat beriladi. Aniq talaffuz musiqa mazmunini yoritishda eng muhim badiiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi.

Bolalar ansambluyushmasining dastlabki faoliyatida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, nutq organlarini (lab, til, va h.) yaxshi ishlata bilmaslik singari kamchiliklar uchrab turadi. Shu kabi kamchiliklar tovush sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Til tutilishi va labning kam harakatchanligi, og'izning noto'g'ri ochilishi, pastki jag'ning, bo'yin va yuz mushaklarining qotib qolishi singari nuqsonlar talaffuzning noaniqliligiga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, buning oldini olish uchun zarur mashqlardan foydalaniladi. Ish jarayonida faqat mashqlargina emas, balki dasturdagi mavjud asarlarni, undagi ayrim parchalarni bir yoki bir necha bo'g'inlarda ijro etish kerak. Bo'g'inlarni tanlash rahbar qo'ygan aniq masalalarga bog'liq. Vokal talaffuzi ustida ishlaganda undoshlarni cho'zmaslik va qattiq talaffuz qilmaslik tavsiya etiladi. Matnni ajratish va ta'kidlash vaqtida bu usuldan to'liq foydalanish mumkin. Undoshlarni cho'zmasdan, tushunarli va aniq talaffuz etish kerak. Vokal talaffuzi nutq talaffuzidan ajralib turadi. Qo'shiq ijrosida undoshlarning bo'g'in oxiridan keyingi bo'g'in boshiga ko'chish qoidasi mavjud.

Masalan: «Paxtaoydan assalom» iborasi shunday ijro etiladi: «Pa-xta-oy-dana-ssa-lo-m» yoki «Hoy ishchilar, ezilgan mehnatchilar» iborasini shunday ijro etish lozim: «Ho-yi-shchi-lar, e-zi-lga-nme-hna-tchi-lar» va h.

«Y»-undoshli tovushlar guruhiga mansub bo'lib, u undoshlarni talaffuz qilish qoidasiga ko'ra ijro qilinadi. Undoshlarni bo'g'in oxiridan keyingi bo'g'in boshiga ko'chishi ijroning ravnligini ta'min etadi. Yangi asarni o'rganish

chog‘ida ansamblovozlarini sekin tempda ijro etish foydali bo‘lib, bunda hamma ijrochilar rahbarning ishorasi bilan bo‘g‘indan - bo‘g‘inga unli tovushlarni oxirigacha cho‘zib o‘tishi kerak. Undosh tovushlar talaffuzi bir vaqtda bo‘lishi lozim. So‘z oxirida jarangli talaffuz etilishini unutmaslik kerak. Masalan: uriburip, soz-sos, bersangiz - bersangis va h.

Ijro vaqtida yonma-yon turuvchi ikkita bir xil undosh odatda bitta cho‘ziq tovush bilan talaffuz etiladi. Masalan:

«Laylak keldi» quyidagicha ijro etiladi; «La-yla-ke-ldi» yoki «Topib bersangiz» iborasi «To-pi-be-rsa-ngiz» kabi aytildi. Vokal-ansambltalaffuz jarayonida rahbarning asosiy maqsadi ansamblshtirokchilarining so‘zlarini tushungan holda ifodali ijro etilishiga yo‘naltiriladi. So‘z ustida ishslashda uning talaffuzi va ma’nosini his qilish kerak. Ijro chog‘ida so‘zlar ona tilidagi jonli talaffuz kabi ifodalanishi lozim. Bu holda tilning aniqligi va fonetik sofligi ijro talaffuzning ifodasi o‘rtasidagi zaruriy uyg‘unlikni keltirib chiqaradi. Bundan sof fonetik ijro etish bilan bog‘liq talaffuz ifodalanishi va til normasini majburiy uyg‘unligi kelib chiqadi.

## **JAMOA QATNASHCHILARINING QIZIQISHLARI**

Vokal ansambl shunos olimlarning ilmiy kuzatishlari hamda yig‘ilgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy vokal-ansambljamoalarini to‘g‘ri boshqarish uchun ob‘ektiv va sub‘ektiv tashkiliy omillarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Kishilardagi kuylashga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlarning mavjudligi, ansamblsan’atining jamoa ijro ekanligi hamda uning ommabopligi ommaviy omillarga kirsa, sub‘ektiv omillarga xonandalarning istak-muddaolari kiradi. Vokal-ansambljamoalari faoliyatida bu omillar muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, vokal-ansambljamoasi xonandalar jamoaga aynan bir maqsadni ko‘zda tutgan xolda orzu-havas bilan keladilar, faol qatnashadilar yoki jamoadan ketib qoladilar. Mana shu orzu-havaslar, intilishlar jamoa qatnashchisining o‘ziga xos ma’naviy extiyoji hisoblanadi. Agar ma’naviy extiyojar kishilar faoliyatining asosini, mohiyatini tashkil qilsa, xohish- istaklar shu mohiyatning aniq ko‘rinishi sifatida gavdalananadi.

Vokal-ansamblrahbarlari jamoa bilan ishslash jarayonida uchraydigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf qilishi uchun xonandalarning orzu- istaklarini tushuna bilishlari zarur va shundagina ular jamoada sog‘lom muhitini yuzaga keltira oladilar.

Xonandalar jamoaga quyidagi asosiy omillar tufayli keladilar:

- musiqiy;
- muloqot;
- kontsert – ijrochilik;
- o‘quv – bilim olish;
- kasbiy – ijodiy.

Musiqiy orzumand kishilar, odatda, yaxshi musiqiy qobiliyat sohiblari bo‘lib, ular jamoaga kuylab xordiq chiqarish maqsadida keladilar.

Musohaba - muloqotda bo‘lish niyatida ham ba’zi kishilar jamoaga keladilar. Ularni jamoaga boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish ehtiyoji etaklab keladi. Odamlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, dardlashish istagi o‘ziga xos bo‘lib, uning doirasida o‘quv bilim olish, kasbiy-ijodiy qiziqishlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Shuni aytish kerakki, ijodiy muhit va pedagogik ta’sir tufayli muloqot va kontsert-ijrochilik niyatida kelgan kishilarda yangi istaklar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday xonandalarning ma’lum qismida asta-sekin haqiqiy ijrochilik mahoratiga erishish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. Ulardagi ilk orzular o‘zgarib, boshqalari shakllana boradi.

Kontsert-ijrochilik istagi bor kishilar kontsertlarda chiqishni jon dildan yoqtiradigan, jamoaning kontsert-ijrochilik faoliyatida jonbozlik ko‘rsatuvchi, ko‘proq yakkaxonlik qilishni yoqtiradigan va yakkaxonlik qiluvchi bo‘ladilar. Ko‘p hollarda kontsert-ijrochilikka intilishdan tashqari o‘quv-bilim olish, musiqaviy, hatto kasbiy qiziqishlari borligini izhor kiladilar va kezi kelganda yakkaxonlikka ham intiladilar.

O‘quv-bilim olish maqsadida kelgan xonandalar asosan, ansamblsan’atini sevuvchi, musiqa savodini oshirish va jamoada kuylash malakalariga ega bo‘lish istagi bor kishilar bo‘ladilar. Ularning ba’zilarida o‘quv-bilim olishdan tashqari musiqaviy, kasbiy-ijodiy intilishlari ham bo‘ladi. Bunday xonandalarda (ko‘pincha yoshlarda) o‘zlarining musiqaviy bilimlari va ijrochilik maxoratlarini oshirish va kelgusi hayotlarida (o‘qishda, ishda) bundan foydalanish maqsadi ham bo‘ladi. Ba’zi xonandalar esa kelgusida o‘qishga kirish yoki professional dargohga borib ishslash maqsadida emas, balki ansamblsan’atini jon dildan sevganlari va uni keng targ‘ibot qilishda faol qatnashish uchungina musiqaviy bilim oladilar va ijo mahoratini oshiradilar.

Kasbiy-ijodiy (professional) manfaatlarga ega jamoa xonandalaring aksariyati jamoaga kelganda shu jamoada olgan saboqlarini o‘zlarining kelgusi professional faoliyatida foydalanishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar. Bunday xonandalar, asosan, oldindan xorda yoki biror ijodiy jamoada qatnashib, tajriba orttirgan bo‘ladilar. Ular ijodiy o‘sish maqsadida mashg‘ulotlarga astoydil qatnashadilar va o‘zlarini ongli ravishda katta san’atga tayyorlashga harakat qiladilar.

Kasbiy-ijodiy intilishga ega kishilar orasida oldindan xorda yoki biror jamoada kuylamagan, musiqaviy tayyorgarlikka ega bo‘lmaganlari ham uchraydi. Lekin ularning ko‘pchiligi o‘zining tirishqoqligi va maqsadga intilishi tufayli kelgusida professional san’atchi bo‘ladilar. Bu hol ko‘proq yoshlarda sodir bo‘ladi. Chunki jamoaga kelgusida xonandalik kasbiga ega bo‘lish niyatida kelgan kishilar ta’sirida butunlay boshqa ishtiyoqlar bilan kelgan yoshlarning mayllari o‘zgara boradi va ularda kasbiy-ijodiy faoliyaga intilish shakllana boradi. Bu shakllanish albatta, jamoadagi ijodiy muhit va xonandalarning ijrochilik mahorati va shu bilan birga xonandaning o‘z intilishlari natijasida amalgalashadi.

Olimlarning sotsiologik kuzatishlaridan ma’lumki, o‘rta ma’lumotli kishilarning ko‘pchiligidagi kontsert-ijrochilik va muloqot istaklari bo‘lsa, to‘liq siz o‘rta ma’lumotga ega kishilar ko‘proq kasbiy-ijodiy istaklari borligini sezadilar. Oliy ma’lumotli kishilarning ko‘prog‘i esa o‘quv-bilim yoki musiqaviy istaklari

borligini anglaydilar. O‘rta yoshdagи kishilarga deyarli musiqaviy, keksalar va yoshlarga ko‘proq muloqot istaklari xarakterli bo‘ladi. Balog‘atga etgan yoshlarning ko‘philibida kasbiy-ijodiy istaklar borligi aniqlangan.

Jamoadagi yaxshi ijodiy-ma’naviy muhit, rahbarning yuqori madaniyatatligi va uning professionallik darajasidagi pedagogik mahorati xonandalarning ishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu o‘z navbatida jamoaning ijodiy faolligi va ijtimoiy faoliyati, o‘quv-bilim olish istaklarining o‘sishiga imkoniyat yaratadi. Ish jarayonida xonandalarning o‘quv-bilim olishga intilishi boshqa mayllar bilan o‘zaro bog‘lanib, kasbiy-ijodiy qiziqishlariga aylanadi.

Jamoaga kirish sabablarining o‘zgarishi ikki: ob’ektiv va sub’ektiv sabablar bilan bog‘liqligi ma’lum.

Sub’ektiv sabablar – xonandalar hayotida uchraydigan har xil o‘zgaruvchan vaziyatlar bo‘lsa, ob’ektiv sabablarga rahbarning pedagogik ta’siri va jamoada olib boriladigan barcha g‘oyaviy-siyosiy tarbiya kabi omillar kiradi. Jamoaga kirish omillarining o‘zgarishi ijro qilinadigan dasturga ham bog‘liq.

Shuni ta’kidlash mumkinki, xonandalar jamoada faol qatnasha borishi natijasida, ya’ni ish jarayonida xonandalarning ishtiyoqlari bir qadar o‘zgaradi va ularda yangi qiziqishlar vujudga keladi.

Ma’lumki, ayrim sabablarga ko‘ra ba’zi xonandalarning jamoadan ketib qolish hollari ham uchraydi. Xonandaning jamoadan ketib qolish sabablarini bilish jamoani pedagogik jihatdan to‘g‘ri boshqarishga zamin yaratadi.

Xonandaning jamoadan ketishi ichki, ya’ni jamoa va uning faoliyatiga daxldor va tashqi – jamoa va uning faoliyatiga daxlsiz kabi vaj-sabablar tufayli sodir bo‘ladi.

Ichki sabablarga jamoada olib boriladigan o‘quv tarbiya ishlari va mashg‘ulotlarning qoniqarsizligi, ijodiy muhitning yo‘qligi, jamoadagi ma’naviy vaziyatning yomonligi, rahbarning madaniy saviyasi pastligi, o‘rgatiladigan asarlarning xonandalar didiga mos kelmasligi va nihoyat, rahbarning tez-tez o‘zgarib turishi kabilar kiradi.

Tashqi sabablarga xonandaning turar joyining o‘zgarib qolishi, ishda navbat bilan ishlashi, oila ahvolining o‘zgarishi kabilar kiradi.

Jamoaning muntazam faoliyatini ta’minalash uchun rahbar har bir xonandaning ichki dunyosini tushuna bilishi, uning insoniy va ijodiy xususiyatlarini bilishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, vokal-ansambljamoalarini to‘g‘ri pedagogik boshqarish uchun xonandalarning jamoaga kirish, unda faol qatnashish va jamoadan ketib qolish vaj-sabablarini bilish va ularni hisobga olib ish tutish jamoani jipslashtiradi, ijodiy yutuqlarga etaklaydi. Har bir mashg‘ulot ijodiy muhitda o‘tishi, har bir xonanda jamoada o‘z o‘rnini topishi va ijodiy jarayonda uning ham hissasi borligini sezishi lozim.

Jamoaning pedagogik boshqarishning asosiy omillaridan biri xonandalarning fe’l-atvorini bilish hisoblanadi. Tajriba va ayrim ilmiy kuzatishlardan shu narsa ma’lumki, xonandalarning shartli ravishda asosiy to‘rt – “zo‘raki”, “hassoslar”, “mulohazakorlar”, va “ijodiy” toifalarga bo‘linishi ma’lum.

Xulosa qilib shularni ta'kidlash mumkinki, vokal-ansambljamoalarini boshqarish uchun ansamblsan'atining mohiyatini anglash, uni nazariy va uslubiy tomondan chuqur o'rganish, xonandalarning kamchiligu fazilatlari va ularning jamoada faol qatnashishi vaj-sabablarini bilib olish talab qilinadi. Bu shartlar vokal-ansambljamoasini pedagogik boshqarishning metodologik asosi hisoblanadi.

## **OVOZ XUSUSIYATINI ANIQLASH**

Ovoz xarkterini, jamoaga qobiliyati bor-yo'qligini, ayniqsa, ba'zi bir ovoz diapazoni hali uncha katta bo'limgan xonandalarning ovozini quyidagicha aniqlash mumkin.

Ma'lumki, har bir ovozda (kuylashni bilmagan kishilarda ham) zo'riqmasdan, erkin, to'liq va tabiiy holda chiqadigan ma'lum tovushlar bor. Mana shu tovushlar orqali ovoz tembrini, uning ba'zi xususiyatlarini, ya'ni musiqaviy xotirasini, musiqani eshita bilish qobiliyatini – sluxini aniqlash mumkin. Buni kuylashga o'ng'ay tovushlar – primar tovushlar deb ham yuritiladi. Ovozi uncha rivojlanmagan yosh bolalar ovozini va eshitish qobiliyatini ham shu tovushlar orqali aniqlanadi. Keyinchalik ularning ovoz diapazonini kengaytirish mumkin.

## **REGISTRLARNI TEKISLASH**

Yuqorida aytilganidek, kishi ovozi ma'lum miqdordagi tovushlardan iborat bo'lib, ular past, o'rta va baland registrlarga bo'linadi. Bizga ma'lumki, pastki registrdan o'rta, ko'krak registriga va o'rta registrdan yuqori, ya'ni bosh registriga o'tishda ovoz o'zgaradi. Kuchsiz, xiraroq tovush kuchliroq, jarangdor, ba'zida esa dag'alroq bo'lib chiqadi. Tajribasiz xonanda ovozida registrdan registrga o'tish jarayonida ohangda o'zgarish seziladi. Tajribali xonandalar esa ovozlarini o'zgartirmaslikka, bir tekis silliq chiqarishga harakat qiladilar.

Shuning uchun yosh, tajribasiz xonandalarni ovozlarini o'zgartirmasdan, hamma registrlarda bir tekis silliq ijro etish yo'llarini, xususan, yuqori registrga o'tishda ovozni yarim berkitilgan (niqobdor qilib) holda kuylashga o'rgata borish kerak bo'ladi.

Yarim yopiq, ya'ni niqobdor ovozda kuylash asosan akademik ijro uslubiga mansubdir. Bu ko'nikmani o'zlashtirish uchun uning mohiyatini yaxshi tushunish, bu hol og'iz bo'shlig'ida paydo bo'lishini, yuqori tanglay maksimal holda ko'tarilib, ovoz yarim yopiq holda og'iz bo'shlig'idan chiqishini va bunda artikulyatsiya apparatlariniing (og'iz, lab, tish, til, tanglay) ishtirok etishini hamda qay holda bo'lishini xonandalarga amaliy jihatdan ko'rsatib berish lozim.

Ushbu uslubga oid mashqlar "Bolalar xori" bo'limining "Ovoz hosil bo'lishi" mavzusida berilgan.

The musical score consists of ten staves of music for voice and piano. The lyrics are as follows:
   
 Stave 1: Но ни но ни но но ни но ни но Но ни  
 Stave 2: До ду до ду до до ду до до ду До ду  
 Stave 3: Mam,  
 Mom,  
 Stave 4: Па ...  
 Stave 5: u e a u e a  
 Stave 6: Боммм, Боннн, Боммм, Боннн, Боммм, Боннн, Боммм, Боннн, Боммм, Боннн,  
 Stave 7: Mo - mi, mo - mi, mo - mi, mo - mi, mo  
 E - o, e - o, e - o, e - o, e  
 Stave 8: Mo - mi, mo - mi, mo - mi, mo - mi, mo  
 E - o, e - o, e - o, e - o, e  
 Stave 9: Ma-mi, mo-mi  
 Stave 10: Mu - o, mi - o, mu - o, mi Mu - o, mi - o, mi - o, mi Mu - o, mi - o ...  
 Stave 11: Ho - ni,  
 Mu - na,  
 Stave 12: Ля, а ...  
 Stave 13: Mu a ma  
 Stave 14: Mu a ma

The musical score consists of two parts: 'Hu-ho' (measures 1-10) and 'Mu-mo' (measures 11-18). Both parts are in common time (indicated by '4') and use a treble clef. The vocal line is accompanied by a piano or harp, indicated by a small piano icon above the staff. The lyrics are written below the notes.
   
**Hu-ho:**  
 Measures 1-10: The vocal line consists of eighth-note pairs. The lyrics are 'Hu ho' repeated. Measure 10 ends with a fermata over the last note.
   
**Mu-mo:**  
 Measures 11-18: The vocal line includes eighth-note pairs and sixteenth-note patterns. The lyrics are 'Mu - MO' repeated. Measure 18 ends with a fermata over the last note.
   
**Performance Notes:**  
 The score includes several performance instructions:  
 - Measure 1: 'hu' is written below the first note.  
 - Measure 2: 'ho' is written below the second note.  
 - Measure 11: 'mu' is written below the first note.  
 - Measure 12: 'mo' is written below the second note.  
 - Measure 15: 'o' is written below the first note.  
 - Measure 16: 'u' is written below the first note.  
 - Measure 17: 'o' is written below the first note.  
 - Measure 18: 'u' is written below the first note.  
 - Measure 18: '... Mo - mi' is written below the last note.



## 5. Test savollari

1. Ansambl so‘zi qaysi tildan olingan?
  - a) frantsuz
  - b) italyan
  - c) nemis
  - d) rus
  
2. Ansambl so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.
  - a) musiqiy ijro usulining birgalikda kuylash
  - b) dinamik nyuanslarni birgalikda kuylash
  - c) birgalikda, uyg‘unlik bilan kuylash
  - d) dirijyor bilan birga kuylash
  
3. Vokal ansambli necha turga bo‘linadi?
  - a) 4
  - b) 2
  - c) 3
  - d) 5
  
4. Aralash xor:
  - a) ayollar xori
  - b) ayollar, erkaklar, bolalar xori
  - c) soprano, alt, tenor, bas
  - d) erkaklar xori
  
5. Aralash xorning umumiyligi diapozoni:
  - a) katta oktava Mi, Fa va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do
  - b) katta oktava Mi, Fa va ikkinchi oktava Mi, Fa
  - c) kichik oktava Do, Re va ikkinchi oktava Lya, Si
  - d) birinchi oktava Do, Re va ikkinchi oktava Si uchinchi oktava Do
  
6. Dastur tanlashning muhim shartlarini to‘g‘ri ko‘rsating.
  - a) xonandalarning ijrochilik mahoratini yuksaltirish, badiiy didini o‘stirish
  - b) asarning g‘oyaviyligi va badiiy yuksakligi, tanlangan asarning ansambljamoasiga mos kelishi, oddiydan murakkabga o‘tib borishi, asarning mavzu jihatdan rang-barang bo‘lishi, tanlangan asarning kontsertda ijro qilinishi

- s) turli janrga mansubligini e'tiborga olish
- d) ijro sur'ati, xarakteri va kontsert dasturiga kiritilishi

7. Vokal-ansambljamoasining maqsadi:

- a) ansamblsan'ati orqali qatnashchi va tinglovchilarni musiqiy kamol topishiga yordam berish
- b) cholg'u san'ati orqali ijrochilarni kamolotga yetkazish
- s) raqs san'ati orqali ijrochilarni kamolotga yetkazish
- d) an'anaviy ijrochilik orqali xonandalarni kamol topishiga yordam berish

8. Vokal-ansambljamoasining vazifalari:

- a) yoshlarni qo'shiq aytish va cholg'u chalishga o'rgatish
- b) raqsga tushishga o'rgatish
- s) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish va fikr uyg'otish, taraqqiyot g'oyalariga chorlash
- d) to'g'ri javob yo'q

9. Vokal-ansambljamoasi rahbarining vazifasi nimalardan iborat?

- a) rahbar dono tarbiyachi, pedagog bo'lishi lozim
- b) rahbar nazariy bilim ega bo'lishi kerak
- s) vokal uslubiyoti jihatidan puxta malakaga ega bo'lishi kerak
- d) hamma javoblar to'g'ri

10. Vokal-ansambljamoasi rahbari nimalarga ega bo'lishi lozim?

- a) dono ustoz, qatnashchilarning qobiliyatlaridan qat'iy nazar bir xil munosabatda bo'lishi
- b) manmanlikka berilishi, ishtirokchilarni bir tomonlama tanqid qilishi
- s) g'amxo'r bo'lishi
- d) obro'e'tiborga ega bo'lishi

11. Asarni o'zlashtirishda rahbar nimalarga ahamiyat berishi zarur?

- a) asar partiyalarini musiqiy nazariy tahlil qilish
- b) so'zlarning aniq va to'g'ri yozilganligiga e'tibor berish
- s) asarni dinamik belgilariiga ahamiyat berishi
- d) asarni chuqur o'rganishi, tahlil qilishi, idrok eta olishi

12. Asarni jo'rli kuylashning afzallik tomonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

- a) ruhlantiradi, mehr muhabbatga chorlaydi
- b) badiiy didini oshiradi, insonparvarlikka undaydi
- s) xonandalar qiziqishlarini oshiradi
- d) asarni ritmik tomondan to'g'ri talaffuz qiladi va toza kuylash imkonini beradi

13. A'kapella usulida kuylash ansambljamoasiga qanday yordam beradi?

- a) ritmik jihatdan o'stiradi
  - b) ansamblsozini yaxshilaydi, xonandalarni garmonik eshitish va tafakkur etish qobiliyatini o'stiradi
  - c) dinamik jihatlarini boyitadi
  - d) hamma javoblar to'g'ri
14. Kuylashdagi to'g'ri nafas olish yo'lini ko'rsating.
- a) qorin bo'shlig'i -diafragmaga nafas olish
  - b) yelka kengayuvchi nafas olish
  - c) ko'krak bilan nafas olish
  - d) ko'krak aralash qorindan nafas olish
15. Aniq bir ritmda va ma'lum bir vaqt oralig'ida almashinadigan nafas qanday nafas deyiladi?
- a) o'ynaganda ishlataladigan nafas
  - b) gapirganda ishlataladigan nafas
  - c) kuylash vaqtida ishlataladigan nafas
  - d) fiziologik nafas
